

## HAYVONLARNING PARAZITLARIGA QARSHI KURASH TADBIRLARI

**G‘.P.Islamov**

*V.F.F.D.(PHD), SAMDVMCHBU ASSISTENTI.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada laboratoriya sharoitida qoramol shomillariga qarshi alfa-shakti 10% EC (Mumbay, Hindiston) preparatining akaritsid samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *akaritsid, alfa-shakti, insektokaritsid, intensiv, piroplazmidoz, teylerioz, transmissiv, ektoparazit, emulsiya.*

**Mavzuning dolzarbliji:** Respublika tabiati parazitar (tekinxo‘r) bo‘g‘inoyqlilar turkumiga (Arthropoda) mansub kanalar (Arachnidae, Acari) hamda hasharotlarga (Insecta) boy bo‘lib, ular aholi va chorvachilik hayvonlarining transmissiv – infeksion, virusli transmissiv-parazitar (o‘lat, tulyaremiya, gemorragik isitma, efemer isitma, kana ensefaliti, tripanosomozlar, leyshmanioz, malyariya, teylerioz kabi kasalliklarni tarqatuvchilari sifatida o‘ta havfli bo‘lib, evolyusion tabiiy uchoqlari mavjud bo‘lgan epizootologik va epidemiologik qaltis geografik hududda joylashganligini hamda antropogen omillar va ekologik suksessiyalarini hisobga olsak, ushbu muammoga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim bo‘ladi. CHunki, hozirgi kunda ham ilgari tugatilgan o‘lat, tulyaremiya, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, kana ensefaliti, araxnoentomoz va boshqa kasalliklarni qayta paydo bo‘lishi, hatto yangi - zika, ebola, parranda grippi, gripsimon virus kasalligi, nodulyar dermatit va boshqalar paydo bo‘lish havfi kuzatilmoqda.

Ayni vaqtida chorvachilik xo‘jaliklaridagi chorva mollarining ektoparazitlariga qarshi kurashda karatin, deltametrin, sumitsidin, ambush, detsis hamda mahalliy sipermetrin, sumi-alfa (Navoiy Elektrokimyo zavodi “QK-EAJ”) kabi piretroid preparatlar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, chorva mollarining ektoparazitlariga qarshi alpha-shakti 10% EC preparatini davolash va insektokaritsidlik ta’siri Respublikamiz miqyosida hali o‘rganilmaganligi aniqlandi. SHuning uchun, ushbu preparatni qoramollarning kanalariga qarshi kurash va oldini olishda akaritsidlik xususiyatlarini o‘rganishni lozim deb topdik.

Alpha-shakti 10% EC preparati inson va atrof muhit uchun fosfor- xlor- karbamat va boshqa organik insektokaritsidlarga nisbatan kam zararli bo‘lib, biotik va abiotik ekologik faktorlar ta’sirida tez degradatsiyaga uchraydi (parchalanadi, zararsizlanadi). Ushbu preparatni chorvachilik amaliyotida rejali va sifatli qo‘llanilishi mamlakat aholisini chorvachilik mahsulotlari bilan ta’minlash, bioekologik, sanitariya-epidemiologik, epizootologik vaziyatni yanada yaxshilash imkonini beradi.

**Tadqiqot materiallari, uslublari va natijalari:** Alpha-shakti 10% EC piretroidining akaritsidlik xususiyatini o‘rganish Pavlov S.D., Pavlova R.P. Preparaty dlya zashchity rogatogo skota ot gnusa i zoofilnyx mux na pastbiščax. Moskva (1999), kniga «Borba s komarami — perenoschikami vozбудитеley bolezney cheloveka i jivotnyx», izd. «Mexnat», Tashkent (1986) va boshqa ilmiy manbalara asosida olib borildi.

Alpha-shakti 10% EC (Mumbay, Hindiston) – sintetik piretroid preparat bo‘lib, uning faol ta’sir qiluvchi moddasi (FTM, ADV) konsentrat emulsiya tarkibida -  $25 \pm 1,5\%$ , har bir litr tarkibida Alpha-Cypermethrine 10,6% (95% li faol tarkibiy moddadan olingan) emulgator 10,0% va to‘ldiruvchi 79,4 foizni tashkil etadi. Preparat o‘tkir hidli, och-sariq yog‘simon suyuqlik bo‘lib suvda yaxshi eriydi (reaksiyaga kirishadi), suv bilan reaksiyaga kirishganda sut rangida bo‘ladi.

SHunday ekan, ushbu toksikologik jihatdan yaxshi o‘rganilgan Alpha-shakti 10% EC preparatini qoramollarning kana (iksod, argas, sarkoptoid) lariga nisbatan akaritsidlik xususiyatlari laboratoriya sharoitida o‘rganildi.

Preparat bilan bog‘liq hamma chora-tadbirlar O‘zbekiston davlat sanitariya vrachi tomonidan № 0028-94, 1994 yilda tasdiqlangan «Xalq xo‘jaligida pestitsidlarni saqlash, transport qilish va qo‘llash sanitariya qoidalari»ga binoan o‘tkazilishi lozim.

Jadvallarda hayvon va parrandalarni, hamda molxona, qo‘ton va parrandaxonalarni kanalarga qarshi ishlov berish, qo‘llaniladigan preparatlar, ular konsentratsiyasi va dozasi, ishlov berish usuli, mavsumi va intervali haqida ma’lumotlar keltirilgan.

### 1-Jadval

**Alpha-shakti 10% li konsentrat emulsiya (Alpha-shakti)**

<i>Hayvon yoki ob‘ekt turi</i>		<i>Preparat konsentratsiyasi (ta’sir etnachi modda)</i>	<i>Preparatning suv bilan aralashmasi nisbati</i>	<i>I boshga dozasi (litr)</i>	<i>Ishlov berish usuli</i>	<i>Takroriyligi (marta)</i>	<i>Ishlov berish intervali (kun)</i>	<i>Ishlovdan keyin hayvanni so‘yish (kun)</i>
Qoramol	Ikso d kana lari	0,055	1:1000	1,5-3,0	Purkash	10-20	7	10
Qoramol	Qichima kana lari	0,11	2:1000	1,5-3,0	Purkash	1-2	7-10	15
Qo‘yechki	Ikso				Vannada			

	d kana lari	0,055	1:1000	1,0-2,0	чыммити- риш yoki purkash	5-10	10	10
qo‘y,echki	Qich ima kana lari	0,011	2:1000	1,0-2,0	Vannada cho‘milti- riш yoki purkash	2	7-10	15
Molxona,q o‘tonlar, tovuqxonalar	Ikso d,ar-gas, gam az, va qich ima kana lari	0,22	4:1000	1 m <sup>2</sup> may-dong a 200 ml	Purkash	1 yilda 2-4 marta	aprel, may, sen-tyabr, oktyabr	-
Teri,jun, qorako‘l-teri,to-vuq pati va momig‘i saqlanadigan ombor xonalar	Kuy a va terix o‘r hash arot-lar	0,22	4:1000	1 m <sup>2</sup> mayd on-ga 200 ml	Purkash	3-4 marta yoz mavsum ida	30	-

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Davidov A.S., Niyazov F.A.. SitchixinaS.V., Uzakova G.U. Insektoakaritsы талстар и сиракс против куриных клещей D.gallinae и A.persicus. Болезни птиц в промышленном производстве, современное состояние проблемы и стратегия борьбы. Научно-практическая конференция, Санкт-Петербург, 2007г. str 319-323

2.SitchixinaS.V., Davidov A.S., Bespalova T.S.. Uzakova G.U., Talstar препарат против молей и коедов вредителей кофе. Fermer хыjaligini rivojlantirish istikbollari. Prof.Prepodovatelskaya konferensiya Samarkand SXI, 2007g. str 124

3.Davidov A.S., Uzakova G.U., Vliyanie talstara na organizm kur nesushek. «Fermer xujaligini rivojlantirish isti=bollari». Prof.prepodovatelskaya konferensiya. Samarkand SXI, 2007 g.

4. Ruzimuradov A. Parazitizm biologicheskiy. Optimizatsiya jivotnovodsta., “Zarafshon” DK nashriyoti, Samarqand, 2011.
5. YAtusevich A.I. i dr. Rukovodstvo po veterinarnoy parazitologii. Minsk IVS Minfina 2015 - 416 s.
6. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). HARBIY-SPORT MUSOBAQALARINI TASHKILLASH VA O 'TKAZISH. PEDAGOG, 6(5), 780-781.
7. Ibragimovich, T. I. (2024). IMPROVING OF PEDAGOGICAL SKILLS OF STUDENTS OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY DURING CONTINUOUS PEDAGOGICAL PRACTICE. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(2), 92-94.
8. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.
9. Mamurzoda, K. X. (2024). TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA. Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi, 17(4), 171-175.
10. Ibrohimovna, T. N., & Uktamovich, G. I. (2023). THE COLLOQUIAL SPEECH IN ENGLISH LINGUISTICS. YANGI O 'ZBEKİSTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 76-78.
11. Абдурахмонов, А. Т. (2023). БАТАННИ СЕВМОҚ ИЙМОНДАНДИР!. YANGI O 'ZBEKİSTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 79-84.
12. Lazizbek G'ayratjon o'g, O. (2023). PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. YANGI O 'ZBEKİSTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 85-90.